

25-Mart, 2025-yil

RIVOJLANISHIDA MUJASSAM NUQSONGA EGA BOLALAR TA’LIMINING BOSHLANG‘ICH BOSQICHIDA KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
Logopediya yo‘nalishi 510-21-guruh talabasi
G‘aniyeva Gulshoda Shuxratjon qizi*

Annotatsiya; Ushbu maqolada rivojlanishida mujassam nuqsonga ega bolalar ta’limining boshlang‘ich bosqichida kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni ko‘rib chiqiladi. Nutqiy buzilishlar va psixofizik rivojlanishdagi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha turli yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, individual va guruh mashg‘ulotlari yordamida bolalarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashuv darajasini oshirish tamoyillari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar; Kommunikativ ko‘nikmalar, rivojlanishida mujassam nuqson, logopedik ish, nutqiy buzilishlar, psixofizik rivojlanish, pedagogik korreksiya, reabilitatsiya texnologiyalari, ijtimoiy moslashuv, defektologiya, individual rivojlanish, kommunikativ terapiya.

KIRISH

Rivojlanishida mujassam nuqsonga ega bolalar ta’lim jarayonida muloqotning o‘rnii katta ahmiyat kasb etadi. Bunday bolalar nutqiy, psixofizik va ijtimoiy rivojlanishdagi muammolari tufayli jamiyatga integratsiyalashishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli, boshlang‘ich ta’lim bosqichida kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish maxsus yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu maqolada rivojlanishida mujassam nuqsonga ega bolalar bilan logopedik ishslash tamoyillari, metodik yondashuvlar va samarali texnologiyalar haqida batafsil so‘z yuritiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Rivojlanishida mujassam nuqsonga ega bolalarda turli xil nutqiy buzilishlar kuzatiladi, masalan:

- Fonetik-fonematik buzilishlar – tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish;
- Umumiy nutqiy rivojlanishning kechikishi – gapirish, so‘z boyligi va grammatik tuzilmalarning shakllanishidagi sustlik;
- Dislaliya va dizartriya – tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish yoki nutqning motor buzilishlari;
- Alaliya va afaziya – nutqning shakllanmasligi yoki yo‘qolishi.

Bu muammolar bolalarning o‘qish, yozish, fikrlash va muloqot qobiliyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, boshlang‘ich ta’lim bosqichida kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish uchun har bir bola holatini individual tahlil qilish muhim.

Kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishda asosiy yondashuvlar

- Kompleks yondashuv – bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash;

25-Mart, 2025-yil

- Individual yondashuv – bolaning nutq buzilish darajasi va rivojlanish sur’atini hisobga olish;
- Guruh mashg‘ulotlari – muloqot tajribasini oshirish;
- Logopedik mashg‘ulotlar – nutqiy nuqsonlarni bartaraf etish va to‘g‘ri talaffuzni shakllantirish.

JAHON TAJRIBASI

Rivojlangan mamlakatlarda rivojlanishida mujassam nuqsonga ega bolalar bilan ishslashda innovatsion texnologiyalar keng qo‘llaniladi. Masalan, AQSh va Yevropa davlatlarida muqobil kommunikatsiya vositalari, jumladan, piktogrammalar va ovozli yordamchilar (AAC) keng joriy etilgan. Shuningdek, o‘yin terapiyasi, sensor integratsiya va musiqiy logopediya kabi yondashuvlar natijadorlikni oshiradi.

XULOSA

Rivojlanishida mujassam nuqsonga ega bolalar uchun kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Samarali logopedik va pedagogik metodlar yordamida ularning muloqotga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ijtimoiy moslashuvini yaxshilash va ta’limdagi muvaffaqiyatini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 1. Azizzxo‘jayeva N.N. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” – T.: Fan, 2003.
2. 2. Raxmonqulova D.R. “Maxsus pedagogika” – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2010.
3. 3. Defektologiya asoslari. O‘quv qo‘llanma / Tahrir hay’ati: R. Qurbonova, G. Yo‘ldosheva – T.: TDPU, 2017.
4. 4. Vygotskiy L.S. “Muloqot va bolaning psixik rivojlanishi” – M.: Pedagogika, 1985.
5. 5. Jalolov J. “Til o‘rgatish metodikasi” – T.: O‘qituvchi, 2012.
6. 6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” – 2021-yil 1-dekabr.
7. 7. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va me’yoriy hujjalari to‘plami.
8. 8. T. Akhmedova. “Psixolingvistika asoslari” – T.: Fan, 2009.
9. 9. S. Mamatova. “Maxsus ta’lim metodikasi” – Samarqand, 2016.
10. 10. B. Xodjayev. “Logopediya asoslari” – T.: Sharq, 2015.